



IZOHLI LUG‘ATLARNING YARATILISHI HAMDA QO‘LLASH FUNKSIYALARI

Ergashova Feruza Yuldashevna

“Chet tillar 2” kafedrası katta o‘qituvchisi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko‘chasi 1-uy, Tashkent 100149, O‘zbekiston (ergashovaferuza252@gmail.com)

Annotatsiya: O‘shbu maqolada izohli izohli lug‘atlarda so‘z ma’nolarining joylashish tartibi, lug‘at tiplari va izohli lug‘atlarning yaratilishi hamda qo‘llanilishi, tarjima lug‘atlari (ikki tilli lug‘atlar), ikki tillik differensial lug‘at, dialektologik lug‘atlar, ko‘p tilli lug‘atlar, tarixiy lug‘atlar, terminalogik lug‘atlar, chet tillar lug‘ati, idiomatik so‘zlar lug‘ati, frazeologik lug‘at, sinonim lug‘atlar, antonim lug‘atlar, orfografik lug‘at, etimologik lug‘at va izohli lug‘atlar (bir tilli lug‘atlar) ning tuzilishi va ularning ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Leksikografiya, lug‘at, leksikologiya, ensiklopedik lug‘at, dialektologik lug‘at, sinonim lug‘at, antonim lug‘at, orfografik lug‘at, etimologik lug‘at terminalogik lug‘at.

KIRISH

Ayrim hollarda, izohdan keyin, so‘z ma’nosini to‘laroq ochish, izohni to‘ldirish maqsadida izohlanuvchi so‘zning antonimidan ham foydalanilgan. Lug‘atda ayrim so‘zlarning ma’nolari tarixiylik (yoki genetik) prinsip asosida joylashtirilgan. Bu prinsipga ko‘ra bosh so‘zning mustaqil ma’nolari va ma’no nozikliklari o‘zaro mantiqiy bog‘lanishda, biri ikkinchisidan tadrijiy ravishda yuzaga kelib va rivojlanib borish tartibida berilgan.

Biroq lug‘atda asos qilib olingan normativlik prinsipi so‘zlarning eng asosiy (bosh, markaziy) ma’nosi oldin quyilishi, ikkinchi darjali ma’nolari keyin qo‘yilishini yoki adabiy tilda keng qo‘llanadigan ma’nolarning oldin, kam qo‘llanadigan ma’nolarning keyin qo‘yilishini talab qiladi. Lug‘atda bu prinsiplarning har biridan o‘z o‘rnida foydalanishga harakat qilingan. So‘zning dastlabki (eskirgan) ma’nosi bilan hozirgi ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanish yaqqol sezilib tursa, bunday ma’nolar tadrijiy tartibida joylashtirilgan.

Masalan: Arafa [a] a). Din .Ramazon yoki qurbon hayitidan oldingi kun... b) bayram yoki biror tantanali kundan oldingi kun. Yangi yil arafasi... .

So‘zning dastlabki ma’nosi bilan hozirgi ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanish sezilmaydigan yoki ahamiyatini yo‘qotgan bo‘lsa, hozirgi ma’nolar oldin dastlabki ma’nolar keyin berilgan. Bunda so‘zning asosi ma’nosi birinchi o‘rinda qo‘yilgan, qolgan ma’nolari ko‘p yoki kam qo‘llanishga qarab joylashtirilgan.

Masalan: Bag‘ishlamoq. 1) bag‘sh etmoq ,bermoq ,g‘ayrat bag‘ishlamoq. 2) din. Duo o‘qib, savobini xudoga ... atamoq ... 3) esk. Kechirmoq , avf etmoq

So‘zlarnig stilistik jihatidan neytral ma'nolari hamma vaqt oldingi o‘rinlarga qo‘yilgan, qolgan ma'nolarini joylashtirishda esa yuqoridagi prinsiplardan biriga amal qilingan. So‘zlarning grammatik ma'nolari, fe'llarning ko‘makchi vazifasidagi ma'nosi, qo‘shma fe'l yasash funksiyasi, mustaqil ma'noli so‘zlarning undov yoki ko‘makchi vazifasidagi ma'nosi va shuningdek lug‘atda frazeologiya, illyustrativ misollar, so‘zlarning grammatik kategoriyasi, otlar, sifatlar, sonlar, olmoshlar fe'llar, ravishlar, ravishdosh va sifatdoshlar, yordamchi so‘zlar, stilistik belgilar, nihoyat, so‘zlarning talaffuzi va urg‘u berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shunday qilib, o‘zimizning tadqiqotchilari- mizda “ O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning tuzilishi , ayniqsa lug‘at maqolasiga diqqatini qaratdi.

Lug‘atning tuzilishi , ya'ni lug‘at maqolasining tuzilishiga to‘xtalib, uning normativ lug‘at ekaniga qanoat hosil qildik , shunday bo‘lsada ba'zi – bir kamchiliklar bor , bunga sabab, mamlakatimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar alfavitimiz lotin alfavitiga o‘tganligi va boshqa o‘zgarishlar.

Biz yana bir izohli lug‘at Sh. Rahmatullaevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘at”ning tuzilishini qarab chiqamiz. Bu lug‘atni yuqorida ham eslab o‘tgan edik. Bu lug‘at 1978 yilda Toshkentda “O‘qituvchi” nashriyotida nashr etilgan . Lug‘atning mundarijasi , iboralarning semantik tabiati, frazeologik polisemiya, frazeologik antonomiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik omonimiya, frazeologik paronomiya, iboralarning grammatik tabiati, iboralarning sintaktik qurshovi, iboralar variantlashi kabi bo‘limlar va nihoyat lug‘at maqolachasining tuzilishdan iborat .Bu lug‘at maqolachasining tuzilishi quyidagicha.

1. Umum til lug‘ati odatda so‘zlar asosida tuziladi va so‘zlarga bog‘lab turib iboralar ham kiritiladi. Bu tip lug‘atlarda birinchi o‘rinda so‘z turgani sababli, iboralar lug‘atga ular tarkibidagi so‘z komponentlar bo‘yicha kiritiladi. Iboralarning o‘zi tasvirlashadigan lug‘atda, frazeologik lug‘atda so‘z komponentlaridan kelib-chiqib emas, balki lug‘at maqolachasini bevosita iboraning o‘zi bilan boshlash ma'qulroqdir.

2. Frazeologik birlik bir variantli yoki ko‘p variantli bo‘ladi.

Bir variantli iboralarda shu variantning o‘zi lug‘at vokubalasi sifatida keltiriladi. Ko‘p variantli iboralarda bir variant tayanch variant sifatida tanlanadi. Iboraga izohlar shu tayanch variant ostida beriladi. Tayanch variantni belgilashda to‘plangan faktik material asosga olinadi:

a) nutqda eng ko‘p uchragan, b) umum xalq tiliga mansub, v) sostavi jihatidan eng to‘liq variant tayanch varianti deb belgilanadi. Lug‘at vokubalasi sifatida tayanch variant keltirilib, boshqa (notayanch) variantlar lug‘at maqolachasi ichida frazeologik ma'no ta'rifidan keyin beriladi :

Masalan: Azob chekmoq . Qiynalmoq. Varianti : azob(i)ni tortmoq: tortgan azob(i)... .

Notayanch variant lug‘atga havola maqolachasi sifatida keltiriladi.

Masalan: Azob(i)ni tortmoq, azob chekmoq.

Tortgan azob(i) - azob chekmoq .

Ko‘pgina iboralarda tayanch variant sifatida ikkita variant keltiriladi, shunda ham ikkinchi o‘rinda joylashgan variant lug‘atga havola maqolachasi tarzida kiritiladi:

Masalan: Achchig‘(i)keldi–achchig‘(i)ni keltirmoq

Achchig‘(i)ni keltirmoq -achchig‘(i) keldi.

Agar iboraning so‘zlashuv nutqidagi talaffuzi bilan adabiy nutqidagi talaffuzi (shuningdek yozilishi) orasida sezilarli ,doimiy farqlanish mavjud bo‘ladi, bunday talaffuz varianti ham havola maqolachasi tarzida beriladi, ammo iboraning variantlari qatorida keltirilmagan: bu bilan shu talaffuz variantiga salbiy munosabat bildirilgan bo‘ladi Tildagi barcha so‘zlar tilning lug‘at boyligini tashkil qiladi. Tildagi so‘zlarni turli qatlamlarga ajratish mumkin. tematik qatlam (ta‘lim tarbiyaga, o‘simliklarga, hayvonotga va boshqalar) ga oid; jamiyat tarixiga bog‘- lab qatlamlarga ajratish; boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar; ijtimoiy sheva qatlamlari;

Tillardagi ma‘lum so‘zlar istemoldan chiqib, ma‘lumlari esa yangi paydo bo‘lib turadi. Istemoldan chiqib ketgan va chiqib ketayotgan so‘zlar so‘zlarni tarixiy va arxaizm so‘zlar deb yuritiladi. Istemol yangi kirib kelgan so‘zlarni neologizmlar deb yuritiladi. Tildagi so‘zlar lug‘atga jamlanadi. Leksikologiyani lug‘at tuzish masalalari bilan shug‘ullanadigan soha leksikografiya deb ataladi. Lug‘atlarning ko‘plab turlari mavjud.

Leksikografiya tilshunoslikning bir qismi bo‘lib, ma‘lum bir tilga xos so‘zlarni to‘plash, ularni muayyan sistemaga solish va lug‘at tarzda nashr etish haqidagi hamda lug‘at va uning tuzilishi, lug‘at turlari to‘g‘risidagi bilimdir. Leksikografiyaning vazifasi juda keng bo‘lib, u qanday lug‘at tuzish kerakligini, lug‘at kanday talab ehtiyojlariga javob berish lozimligini ham o‘z ichiga oladi. Shuni aytib o‘tish kerakki, kishilarni yodda tutib qolish qobiliyati naqadar kuchli bo‘lmasin, bir tildagi barcha so‘zlarni, ularning xilma-xil ma‘nolarini esda saqlash nihoyatda qiyin va mumkin ham emas. Shuning uchun ham kishilarning madaniy hayotida turli xildagi lug‘atlarning ahamiyati juda kattadir.

Kishilarning ana shunday madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun turli xildagi lug‘atlar tuzilgan va hozirda ham tuzilmokda. Demak, leksikografiya leksikologiyani ham lug‘at tuzish bilan shug‘ullanadigan bo‘limidir.

Anatol Fransning yozishicha “Lug‘at alfavit tarkibida joylashtirilgan voqelikdir”. Bundan borliqdagi jamiyki narsa, hodisa va voqealar har bir tilning lug‘at boyligida aks etadi, degan ma‘no kelib chiqadi. Kishilarning talabi va madaniy ehtiyojlarining qondirish uchun turli xildagi lug‘atlar tuzilyapti. Hozirgi kunda ikki tilli tarjima lug‘ati, ikki tillik differensial lug‘at, terminologik lug‘at, tarixiy lug‘at, etimologik lug‘at, chet tillardan kirgan so‘zlarning lug‘ati, ikki tillik differensial lug‘at, dialektologik lug‘at, frazeologik lug‘at, idiomatik so‘zlar lug‘ati, orfografik lug‘at, ensiklopedik lug‘at, antonim lug‘at, omonim lug‘at, sinonim lug‘at, maxsus lug‘atlar, imlo lug‘ati, talaffuz lug‘ati, nemis tilida Grosses Wörterbuch der Deutschen Aussprache va Langenscheidt Grosswörterbuch der Deutsch als Fremdsprache (2003) . va boshqa lug‘atlar kishilarning madaniy ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Leksikografiya nazariyotidan ma'lumki, bizningcha uch asosiy muammoni masalani hal etish kerak:

- 1) Lug‘atlarning tiplari.
- 2) Lug‘atlar uchun so‘zlar to‘plash va ularni lug‘atlarga kiritish (joylashtirish).
- 3) Lug‘at maqolasining tuzilishi.

Ushbu savol masalalarni hal etishda lug‘at maqolasi holatiga nazariy jihatdan qarash kerak bo‘ladi va bu ma'noda nemis tili lug‘atlarini tahlil qilsa bo‘ladi. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, lug‘atlarni tahlil qilish to‘liq ma'noda nazariy va amaliy jihatdan asosiy tup masala har jihatdan ham yoritilavermaydi ya'ni leksikografiyada ma'lum bir maqola, risola doirasida hal qilib bo‘lmaydi, albatta, lug‘atlar tuzishda ko‘pgina so‘zlar, iboralar, faktik materiallar to‘planadi, alfavitga solinadi, klassifikasiya qilinadi, tartibga solinadi.

Ma'lumki, har bir tilning har turli lug‘atlari mavjud bo‘ladi. Odatda ular: tarjima lug‘atlari (ikki tilli lug‘atlar), dialektologik lug‘atlar, ko‘p tilli lug‘atlar, tarixiy lug‘atlar, terminalogik lug‘atlar, chet tillar lug‘ati, idiomatik so‘zlar lug‘ati, frazeologik lug‘at, sinonim lug‘atlar, antonim lug‘atlar, orfografik lug‘at, etimologik lug‘at va izohli lug‘atlar (bir tilli lug‘atlar).

Lug‘atlar har xil maqsadli bo‘ladi (bo‘lishi mumkin): Normativ (norma bo‘yicha, normaga muvofiq), bu lug‘atlar nutqda so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash, boshqa lug‘atlar (ayrimlari) etimologik lug‘atlar bo‘lib, ular so‘zlarning etimologiyasini (kelib chiqish jihatdan). Demak, lug‘atlar oldiga har xil maqsadlar qo‘yiladi, bu maqsadlar: dialektik, frazeologik, sinonimik, lug‘atlar va boshqalar. So‘zlarning ma'nolari lug‘atlarda berilishi yoki berilmasligi ham mumkin (masalan: nemis tili lug‘ati “Der Grosse Duden”).

Agar so‘zlarning ma'nolari berilsa (ochilsa) lug‘atlar har xil yo‘llar (usullar) bilan izohlanadi (qo‘llanadi), izohli lug‘atlarda izohlanadi, tarjima lug‘ati (ikki tilli lug‘at)da tarjima qilinadi. Shundan ma'lumki, ushbu usullarni qo‘llash, lug‘atlarda istalgan so‘z qatlamlarini qayd etish mumkin.

Tarjima lug‘atlari. Bu turdagi lug‘atlar ikki yoki undan ortiq tilli bo‘lishi mumkin. Tarjima lug‘atlaridan so‘ng eng ko‘p va keng tarqalgani ikki tillik tarjima lug‘atlaridir. Bunday lug‘atlardan boshqa bir tildagi so‘zlar ona tiliga yoki ona tilidagi so‘zlar biror boshqa tilga tarjima qilinadi.

Masalan: nemischa-ruscha, ruscha-o‘zbekcha, nemischa-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha, fransuzcha-ruscha lug‘atlar kabi. Bunday lug‘atlarni tuzish nihoyatda qiyin va murakkab ma'suliyatli ishdir. Bir tilga xos bo‘lgan so‘zlarni, ularning barcha ma'nolarini, so‘z ma'nolarining o‘zgarishini ikkinchi bir tilga tarjima qilib berish juda qiyin ishdir. Bunday lug‘atlarni tuzuvchilardan har ikki tilni juda yaxshi tushunishni, bilim darajasining har tomonlama mukammal bo‘lishi talab kilinadi. Agar bir tilga xos bo‘lgan so‘z va uning ma'nolarini ikkinchi tilga birgina so‘z bilan tarjima qilganimizda, shu so‘zning turli ma'nolarini,

uning so‘z birikmalaridagi gapdagi xilma-xil ma‘no nozikliklarini ifodalay olmagan, u tilning barcha imkoniyatini ochib bera olmagan bo‘lar edik.

Masalan; rus tilida “войти” so‘zining asl ma‘nosi kirmoqdir, biroq bu so‘zni o‘zbek tiliga tarjima qilganimizda, uning faqat shugina ma‘nosini ifodalab bersak bu so‘zning ko‘chma ma‘nolarini, ma‘no nozikliklarini tushurib qoldirgan bo‘lamiz. Chunki, “войти” so‘zi kirmok ma‘nosidan tashqari, sig‘moq, joylashtirmoq, o‘rganib olmoq, o‘zlashtirmok, murojaat qilmok, taklif qilmok, qo‘llamok, rasm odat bo‘lib qolmoq, berilib ketmok, qiziqmoq kabi ma‘nolarni ham ifodalaydi. Misollar:

1. Дети вошли в комнату - bolalar uyga kirdi (bu erda asl ma‘nosida qo‘llangan).).

2. Все вошли в чемодан - hamma narsalar chemodanga sig‘di.

3. Войти в суть дело - ishning mohiyatini, mag‘zini tushunib olmoq (kirib olmoq deb bo‘lmaydi).

4. Войти в президиум с предложением - prezidiumga taklif yoki tavsiya qilmok (kirmok so‘zi bu misola sun‘iy bo‘lib chiqadi).

5. Это слова вошло в употребление - bu so‘z ishlatila (qo‘llanila) boshladi (bu erda iste‘molga kirdi desak sun‘iy bo‘lib chiqadi).

6. Войти в привычку - rasm bo‘lmok, odat bo‘lib qolmok (bu misola ham odatga kirdi desak sun‘iy bo‘lib chiqadi)

7. Войти в доверие - ishonch qozonmoq (ishonchga kirdi deb bo‘lmaydi)

8. Войти а азарт - berilib (qiziqib) ketmok. (qiziqishga kirdi deb bo‘lmaydi)

M.M.Abdurahimov “O‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha lug‘at ”(2010y) (342-343 betlarga qarang).

Ikki tarjima lug‘atlari tuzilganda tarjima qilinuvchi tildagi har bir so‘zning barcha ma‘nolari ko‘zda tutilib, ular ona tili imkoniyatlaridan foydalangan holda mumkin qadar to‘liqroq bo‘lishi, berilishi kerak.

Tarjima lug‘atlarida bir tildagi ikkinchi tilga tarjima qilinganda ma‘no jihatdan bir biriga yaqin sinonimlar avval, bir biridan uzoqroq sinonimlar keyin beriladi. Bir biriga juda yaqin sinonim so‘zlar vergul bilan, ozmi-ko‘pmi ma‘no jihatdan uzoq bo‘lganlari nuqtali vergul bilan ajratiladi.

Masalan: Quyidagi harbiy atamalarni nemis tilidagi tarjimalariga e‘tibor qaratamiz. Die Kraft so‘zi rus tiliga quyidagicha tarjima qilinadi. Kraft f сила, усилие; энергия; мощьность;

1) Kräfte pl сила; усилия; äußerste ~ мор самый полный ход; frische Kräfte pl свежие силы; herkömmliche Kräfte pl обычные виды оружия; konventionelle Kräfte pl обычные вооруженные силы; kritische ~ критическая нагрузка; lebende ~ живая сила; militärische ~ военная мощь; mobile Kräfte pl подвижные (мотомехани- зированные) части (войска); schwache Kräfte pl небольшие (незначительные) силы; stärkere Kräfte pl крупный (значительные) силы; überlegene Kräfte pl превосходящие силы; vereinigte Kräfte pl объединенные сила; объединенные усилия; vereinzelte Kräfte pl разрозненные (разобщенные) силы; разобщенные усилие; vorgeworfene schnelle Kräfte pl

продвинувшиеся(выдвинутые) вперед подвижные (мотомеханизированные) части; Kräfte fesseln сковывать силы (противника); an Kräften abnehmen pl ослабевать, изматываться; außer ~ setzen отменять(напр. решение); außer ~treten терять силу(о приказе); in ~ setzen утверждать (напр. проект устава); in ~ treten вступать в силу (приказе); seine Kräfte einsetzen pl напрягать свои силы; von Kräften kommen pl ослабевать, изматываться; äußerste ~voraus (zurück) мор самый полный (аварейный) ход вперед(назад) ! der Kraftaufwand расход (применение) энергии (силы).

2) Truppe f часть; подразделение; ~n pl войска; bodenständige ~ стационарно

Дислоцированная (территориальная) часть; chemische ~n pl химические войска; eigene ~n pl свои войска; fechtende ~n pl войска, действующие в первой линии; войска, принимающие непосредственное участие в бою; fliegertechnische ~ лётно-технические части; fremde ~n pl войска противника, иностранный военные контингенты, иностранные войска; frische ~n pl свежие войска, пополнение (прибывшее после отдыха или переформирования); funktechnische ~ радиотехническая части; reguläre ~n pl регулярные войска; schnelle ~n pl моторизованные войска; ständige mobile ~n pl кадровые части; Technische ~ ФРГ войска материально- технического обеспечения (категория войск); verlastete ~n pl моторизованные части; ~n Luftabwehr pl войска ПВО; ~n der Luftverteidigung des Landes pl войска ПВО страны; ~n der vorderen Linie pl войска первого эшелона; bei der ~n в строю; на строевой должности; ~ für Sonderaufgabe(n) часть специального назначения; ~n und Material pl живая сила и боевая техника; die ~n straff zusammenfassen pl обеспечивать твердое управление войсками; zur ~ zurückkehren возвращаться в строй. Prof. A.M. Taube, L.S. Azarx, A.P. Armetov, I.M. Glagolev, L.F. Parparov "nemesko-russkiy voenny slovar" [9, 514-515 b]

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarjima lug‘atlarida so‘zlarning ko‘chma ma’nolari esa raqamlar bilan ko‘rsatiladi. Turg‘un so‘z birikmalari, idiomalar, frazeologiyalar esa alohida belgilar bilan ajratiladi.

Dialektologik lug‘at. Dialektologik lug‘atning vazifasi har bir dialektning umumxalk adabiy tilidan farq qiladigan so‘zlarini adabiy til bilan solishtirib, izohlab berishdan iboratdir. Rus tilida bir nechta dialektologik lug‘atlar nashr etilgan. O‘zbek tilida F. Abdullaevning “Xorazm shevalarining lug‘ati” va boshqalar nashr etilgan. Dialektologik lug‘at tuzish masalasi ham o‘zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ko‘p tillik lug‘atlar. Ko‘p tillik lug‘atlar juda kam uchraydi. A. Papov va V. Popovlar tomonidan tuzilgan. etti tillik “Fransuzcha-inglizcha-nemischa-ispancha-portugalcha-gollandcha - ruscha lug‘at” ni ko‘rsatish mumkin. Bu lug‘at 1902 yilda Varshavaga nashr etilgan.

Biroq bunday lug‘atlar foydalanish uchun bir muncha noqulaylik tug‘diradi, ularda tarjima qilingan tillardagi so‘zlarning ko‘p ma’nolarni berish imkoniyati bo‘lmaydi. Ko‘p tillik lug‘atlarni tuzish ham nihoyatda qiyin bo‘lib, bunday lug‘atlarni tuzuvchilardan bir nechta tilni

mukammal bilish talab qilinadi. Shuning uchun ham ko‘p tillik lug‘atlarni tuzish ishlari rivoj olmagan.

Ikki tillik differensial lug‘at. Ikki tillik differensial lug‘atlarni tuzishdan maqsad bir-biriga yaqin bo‘lgan ikki qardosh tilning ham ma‘no, ham shakl jihatdan bir-biridan farq qiladigan so‘zlarni izohlab berishdir. Tajriba shuni ko‘rsatdiki, bunday lug‘atlarni foydasi nihoyatda oz bo‘lib ular ikki tillik tarjima lug‘atidan unchalik farq qilmaydi. Shuning uchun bunday lug‘atlarni yaratish ishi ham u qadar taraqqiy etmagan.

Tarixiy lug‘atlar. Tarixiy lug‘atlar qadimgi yozuv yodgorliklaridagi eskirib qolgan, iste‘moldan chiqqan so‘zlarning ma‘nosini izohlab, ularning tug‘ri o‘qilishiga yordam beradi. Tarixiy lug‘atda so‘zlar xronologik tartibda joylashtirilib, hozirgi til bilan izohlab beriladi. Bunday lug‘atlarni yaratish murakkab ishdir. Eski yozuvlardagi so‘zlarning ma‘nosini echib berish katta ilmiy kuchni talab kiladi. Shuning uchun bu kungacha tarixiy lug‘atlar boshqa lug‘atlarga nisbatan juda oz yaratilgan.

Chex olimi Yan Gebauer chex tilining tarixiy lug‘atini tayyorlash navbatdagi vazifalardan biridir o‘zbek tilining yozuv yodgorliklari X asrdan ma‘lum. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu Lug‘atit turk “(turkiy so‘zlar devoni), XVI asrning birinchi yarmida vujudga kelgan “Abushka” nomli lug‘at XVIII asrda Nodirshox Maxtixonning “Sangloh” (chig‘atoycha- forsha) lug‘ati, XIX asrda Shayx Sulaymoning “Chig‘atoycha- turkcha” lug‘ati va boshqalar o‘zbek tilining tarixiy lug‘atini yaratishga asos bo‘la oladi. P.Shamsiev va S.Ibroximov tuzgan “O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at” kabilar o‘zbek tili boyligini aniqlashga, shu bilan tarixiy lug‘at tuzishga yordam beradi.

Terminalogik lug‘at. Terminalogik. lug‘atlar ko‘pincha bir tilda yoki ikki tilda tuzilib, uning vazifasi har bir sohadagi terminlarni izohlab, tushuntirib berishdan iboratdir. Bunday lug‘atlar maxsus lug‘at yoki sohalar lug‘ati deb ham yuritiladi. Terminalogik lug‘atlar har qaysi soha bo‘yicha, chunonchi, qishloq xo‘jaligi, falsafa, medisina, tilshunoslik, geografiya, fizika, matematika, harbiy va boshqa sohalar bo‘yicha tuziladi.

O‘zbek tilida birmuncha terminalogik lug‘atlar yaratilgan. Masalan: T.N. Qori Niyoziyning “Ruscha -o‘zbekcha matematik terminlar lug‘ati” (1933), M.A.Sobirov, R.X.Mallin va M.D.Yagudaevlarning “Ruscha - o‘zbekcha fizika terminlar lug‘ati”, S.Saxobiddinovning “Ruscha -o‘zbekcha qisqacha botanika terminlari lug‘ati” (1954), A.Yu.Yunusovning “Ruscha- o‘zbekcha qisqacha fiziologik terminlar lug‘ati”, prof A.M Taube, L.S.Azarx, A.P.Armetov, I.M. Glagolev, L.F. Parparov ”nemischa – ruscha harbiy lug‘at” va boshqalar ana shunday terminologik lug‘atlardir.

Chet tillardan kirgan so‘zlar lug‘ati. Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida turli tilda so‘zlovchi xalqlar bir- birlari bilan iqtisodiy, madaniy, ilmiy munosabatlarda va savdo-sotiq munosabatida bo‘lganlar. Xalqlarning ana shunday munosabatlari natijasida bir tildan ikkinchi tilga ayrim so‘z va iboralar o‘tgan. Shunday qilib har bir xalqning tilida chetdan kirgan so‘zlar paydo bo‘lgan. Bunday so‘zlar ko‘pincha hammaga tushunarli bulmaydi. Shuning uchun bunday so‘zlarning qaysi tildan kirganligini ko‘rsatib va ularning ma‘nolarini

izohlab berishning ahamiyati kattadir. Bunday vazifani chet tillardan kirgan so‘zlar lug‘ati bajaradi .

Chet tillardan kirgan so‘zlarning lug‘ati kishilarning ish faoliyatida ham nazariy ham amaliy jihatdan nihoyatda kerak bo‘lganligi uchun ko‘p tarqalgandir. Masalan: Chet tillardan rus tiliga kirgan so‘zlar lug‘ati (slovar' inostrannix slov) yigirma ming so‘z va terminni izohlab bergan.

O. Usmonovning o‘zbek tilidagi “Internasional so‘zlar lug‘ati “ ham ikki yarim ming so‘zni o‘z ichiga oladi .

Idiomatik so‘zlar lug‘ati . Idiomatik so‘zlar lug‘atining vazifasi har bir tilga xos bo‘lgan idiomatik iboralarni to‘plab, izohlab berishdan iboratdir. Bunday lug‘atlar juda ham kam.

Frazeologik lug‘at. Frazeologik lug‘at juda kerakli lug‘atlardan bo‘lib, har bir tilga xos maqol, matal, hikmatli (turg‘un) so‘z birikmalarini to‘plab, ularning qanday hollarda ishlatilishini misollar bilan izohlab beradi. Ba'zi chetdan kirgan iboralarning qaysi tildan kirganligi ko‘rsatilib, parallel berilgan. M.I.Umarxujayev, K.N.Nazarovning “Hemischa - ruscha - o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” har uchala tilga doir bo‘lgan 700 dan ziyod turli xil strukturaviy tuzilishiga ega bo‘lgan turg‘un so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu frazeologik lug‘atda berilgan har bir nemis tilidagi turg‘un suz birikmasi avval o‘sha tilda talqin qilingan, so‘ngra uning o‘zbek va rus tillaridagi mos keluvchi muqobil tarjimalari berilgan. Bunday lug‘at tuzish nihoyatda og‘ir va qiyin ishdir, shuning uchun ham bu xil lug‘atlar ko‘p tarqalgan emas.

Orfografik lug‘at. Orfografik lug‘atning birdan bir vazifasi bir tildagi so‘zlarni shu tilning grammatik qoidalari asosida to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatib berishdan iboratdir. So‘zlarni bir xil imlodagi to‘g‘ri yozishda orfografik lug‘atning ahamiyati katta. Orfografik lug‘atlardan S.Ibroximov va M.Raxmonovning “O‘zbek adabiy tilining imlo lug‘ati, (1956), F.Kamolov va Z.Ma'rufovning “O‘zbek tilining qisqacha imlo lug‘ati”ni (1969) ko‘rsatish mumkin.

Etimologik lug‘atlar. Lug‘atning bu turi so‘zlarning kelib chiqish tarixini tushuntirib izohlab beradi. Bunday lug‘atlar. Hozirgacha kam uchraydi. Rus tilida bunday lug‘atdan ikkitasi bor. S.Barxudarov tahriri ostida 1961 yilda “Краткий этимологический словарь русского языка”. G. P Siganenko tomonidan yozilgan, 1970 yilda Kievda nashr etilgan “Этимологический словарь русского языка”.

Etimologik lug‘atdan misol: От сочитания по месту (по участи) Образовалась слово поместье (имение), которое взято из практики пожалования земелслужилым людям на срок несения ими военных обязанностей. От слова поместье образовалось слово (помещица).. Qarang G. P . Siganenko “Этимологический словарь русского языка”. [4, 357-358 b].

Lug‘atlar, asosan, ikki turga bo‘linadi: ensiklopedik va filologik . Ensiklopedik lug‘atlarda fan, texnika va madaniyatning barcha sohalariga oid tushunchalar izohlanadi. Ularda tabiat hodisalari, ijtimoiy hayotidagi voqealar, mashhur kishilar haqida ma'lumotlar beriladi . So‘zning o‘zi haqida faqat uning chiqishini ko‘rsatish bilan chegaralanadi. Shuning uchun

bunday lug‘atlar tushuncha lug‘at deb (ataladi) yuritiladi. Odatda, bunday lug‘atlarda rasmlar, karta va sxemalar ham keltiriladi.

Ensiklapedik lug‘atlarda so‘z va iboralar alfavit tartibida maqola -ning sarlavhasi sifatida qo‘yiladi. Ensiklapedik lug‘atlar maqsad va vazifasiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: umumiy ensiklopedik lug‘at va biror sohaning ensiklopedik lug‘ati. Umumiy ensiklopedik lug‘atlarga “Большая советская Энциклопедия”, “ O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi ” misol bo‘ladi. Biror sohaning ensiklopedik lug‘atlarga “Литературная энциклопедия” “Педагогическая энциклопедия”, “Техническая энциклопедия”, kabilar kiradi. Ensiklopedik lug‘at Sharqda “Qomus ” deb ham yuritiladi.

Ensiklopediya turli soha, fan, xo‘jalik va maorif haqida kerakli ma'lumotlar beruvchi ilmiy asardir. Ensiklopedik lug‘at muhim tarixiy voqealar, fan va texnika sohasida erishilgan yutuqlar, turli mamlakatlar va ularning xalqlari, tili, iqtisodi, madaniyati, davlat, fan, texnika san'at adabiyot arboblari, ularning va ilmiy qarashlari to‘g‘risidagi kerakli ma'lumotlarni yoritib beradi; Turli terminlarni etarli darajada izohlaydi. Bunday tirik namunasi sifatida “Bolshaya sovetskaya Ensiklopediya”ni ko‘rsatish mumkin. Ellik tomdan iborat bo‘lgan bu nodir asardan hamma sohaga oid kerakli ma'lumotlarni topish mumkin.

Filologik lug‘atlarda asosiy e'tibor so‘zga yoki so‘z birikmasiga beriladi va ular har tomonlama izohlanadi. Bunday lug‘atlar ham alfavit tartibida tuziladi va izohlanadigan so‘z yoki so‘z birikmasi sarlavha sifatida keltiriladi. Filologik lug‘atlar ham ikki xil bo‘ladi: umumiy va maxsus filologik lug‘atlar. Umumiy filologik lug‘atlarda hamma qo‘llaydigan so‘zlarning xarakteristikasi beriladi. Bular bir tilli, ikki tilli , ko‘p tilli bo‘ladi.

O‘quv lug‘ati. Bunday lug‘atga ta'lim va tarbiyaga oid so‘z va iboralar kiritiladi.

Rasmi (illustrativ) lug‘at. Bu lug‘atga kiritilgan so‘zlar turli rasm- lar tasvirlar orqali tushuntiriladi.

Qo‘yilgan maqsadga ko‘ra bir tilli filologik lug‘atlar bir qancha turlarga bo‘linadi. Masalan: izohli lug‘atlar, maxsus lingvistik lug‘atlar, etimologik lug‘atlar, morfem lug‘at, frazeologik lug‘at, sinonim so‘zlar lug‘ati, orfoepik lug‘at, chappa lug‘at, atoqli otlar lug‘ati, joy nomlari lug‘ati, mashhur yozuvchilar asarlari, lug‘ati o‘zlashtirma so‘zlar lug‘ati, dialektikal lug‘at kabilar.

Lug‘atlarda so‘zlarni ifodalanishi. Ma'lumki, lug‘atlarda so‘zlar alfavit tartibida beriladi. So‘zlarning ishlatilish doirasi, grammatik xususiyatlari ham turli belgilar bilan ko‘rsatiladi. Lug‘atda so‘zlarning yozilishidan tashqari talaffuz etilishi ham transkripsiya orqali beriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda o‘zbek tilshunosligida ham bu sohada bir muncha ishlar olib borilmokda. Bunday lug‘atlarni tuzish nihoyatda og‘irdir, ular bir qancha yillarning mahsuli bo‘lib, juda katta ilmiy kuchlar ishtiroki bilan yaratiladi.

ADABIYOTLAR

[1] С.Бархударов “Краткий этимологический словарь русского языка”. 1961 й

- [2] С.Иброхимов ва М.Рахмонов “Ўзбек адабий тилининг имло луғати”. 1956й
- [3] Ф.Камолов ва З.Маъруфов “Ўзбек тилининг қисқача имло луғати”. 1969 й
- [4] Г. П . Циганенко “Этимологический словарь русского языка”. Киев. 1970 й (357-358 бетлар).
- [5] О.Азизов, З. Ризаева ” Ўзбекча – русча луғат” Тошкент 1989 й
- [6] Stanislaw Walewski und prof. Dr. Erwin Wedel “Langenscheidt Taschenwörterbuch Russisch-Deutsch, Deutsch- russisch “ Berlin und München. 2003.
- [7] Prof Dr. Dieter Götz, Prof Dr. Günter Haensch, Prof Dr. Hans Wellmann.“ Langenscheidt Grosswörterbuch der Deutsch als Fremdsprache“ Berlin und München2003.
- [8] М.М.Абдурахимов “Ўзбекча -русча, русча- ўзбекча луғат ”Тошкент 2010й (342-343 бетлар- га қаранг)
- [9] А.М Таубе, Л.С.Азарх, А.П.Арметов, И.М. Глаголев, Л.Ф. Парпаров ”немецко-русский военный словарь” Москва -1964. (514-515 бетлар)
- [10]. I.Haqqulov. Tasavvuf va she’riyat. — T.: 1991;
- [11]. Fitrat. Navoyining forsiy shoirlik‘i va fors tilidagi asarlari to‘g‘risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: 2000;
- [12]. O.Sharafiddinov. Alisher Navoiy. Kitobda: Tanlangan asarlar.-T.: Fan,1978:
- [13]. S.Ayniy. Tanlangan ilmiy asarlar. — T.: Fan, 1978;
- [14]. S.G‘anieva. Alisher Navoiy. -T.:1968;